

“ANTIBIOTIKLARGA CHIDAMLILIK VA UNI KAMAYTIRISHNING FARMAKOLOGIK USULLARI”

Tuzuvchi: **Anorbayeva Muxabbat Mirzakarimovna**

Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

Umumkasbiy fanlar kafedrası

Farmakologiya va retseptura asoslari fani

Katta o'qituvchisi

Antibiotiklarga chidamlilik va uni kamaytirishning farmakologik usullari

Antibiotiklarga chidamlilik — bu bakteriyalarning antibiotiklar ta'siriga qarshi turib, yashab qolish va ko'payish qobiliyatidir. Bu bugungi tibbiyotning eng jiddiy muammolaridan biridir, chunki oddiy infeksiyalarni davolashni ham qiyinlashtirib yuboradi.

Chidamlilikning asosiy sabablari noto'g'ri antibiotik ishlatish, davolash kursini to'liq tugatmaslik, shifokor maslahatisiz dori qabul qilish va antibiotiklarni haddan tashqari ko'p qo'llashdir. Bakteriyalar vaqt o'tishi bilan mutatsiyaga uchrab, dorilarga moslashib oladi va ularni “tan olmay qo'yadi”.

Farmakologik nuqtai nazardan antibiotiklarga chidamlilikni kamaytirish uchun bir nechta muhim usullar mavjud:

Birinchi, noto'g'ri antibiotik tanlash. Bunda qo'zg'atuvchi bakteriyani aniqlab, unga eng sezgir preparat tanlanadi. Bu empirik emas, balki laborator tahlillarga asoslangan bo'lishi kerak.

Ikkinchi, kombinatsion terapiya qo'llaniladi. Ya'ni ikki yoki undan ortiq antibiotik birgalikda beriladi. Bu bakteriyaning moslashish imkoniyatini kamaytiradi.

Uchinchidan, to‘g‘ri doza va davolash davomiyligi juda muhim. Kam doza yoki qisqa kurs bakteriyalarning tirik qolishiga va chidamlilik rivojlanishiga olib keladi.

To‘rtinchidan, antibiotiklarni rotatsiya qilish — ya‘ni ma‘lum davrda turli guruh antibiotiklarni almashtirib ishlatish bakteriyalar bosimini kamaytiradi.

Beshinchidan, β -laktamaza ingibitorlari kabi himoya qiluvchi dorilar qo‘llaniladi. Ular bakteriyalar ishlab chiqaradigan fermentlarni bloklab, antibiotikni samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, antibiotiklarga chidamlilikni kamaytirish faqat shifokor nazorati, to‘g‘ri farmakologik yondashuv va oqilona dori ishlatish orqali amalga oshiriladi. Har bir noto‘g‘ri qadam kelajakda davolashni yanada qiyinlashtirishi mumkin.